

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODELI	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Homidov Baxtiyor Rahimberdievich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

baxtiyor.xamidov@soliq.uz

ORCID iD: 0009-0003-7866-9257



ABSTRACT. This article examines the current state of the taxation system for e-commerce entities in Uzbekistan in the context of the rapid development of the digital economy, its institutional and economic characteristics, and opportunities for improving tax administration. It substantiates that the expansion of e-commerce platforms, marketplaces, trade transactions conducted through social networks, electronic payments, cross-border electronic services, and digital platform activities creates a need to adapt traditional taxation mechanisms to new economic conditions. Particular attention is paid to the identification of e-commerce transactions, the comprehensive formation of the tax base, real-time monitoring of business transactions, and the development of data exchange between electronic platforms and the information systems of tax authorities.

The article develops proposals aimed at improving the efficiency of e-commerce taxation through the establishment of an integrated “platform – payment system – bank – tax authority” information model, automated assessment of tax risks, identification of e-commerce transactions, automatic declaration of income received through digital platforms, and the strengthening of risk-based digital tax control. It is substantiated that these mechanisms can contribute to reducing hidden economic activity in the e-commerce sector, expanding the tax base, lowering transaction costs associated with fulfilling tax obligations, and ensuring the stability of state budget revenues.

Keywords: e-commerce, digital economy, taxation, tax administration, digital transformation, marketplace, e-commerce platform, tax base, electronic payment, VAT, digital tax control, risk analysis, hidden economy, cross-border electronic services.

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish tizimining amaldagi holati, uning institutsional va iqtisodiy xususiyatlari hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Elektron savdo maydonchalari, marketpleyslar, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan savdo operatsiyalari, elektron to'lovlar, transchegaraviy elektron xizmatlar hamda raqamli platformalar faoliyatining kengayishi an'anaviy soliqqa tortish mexanizmlarini yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirayotgani asoslab berilgan. Elektron tijorat operatsiyalarini identifikatsiya qilish, soliq bazasini to'liq shakllantirish, xo'jalik operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish hamda elektron platformalar va soliq organlarining axborot tizimlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqolada elektron tijoratni soliqqa tortish samaradorligini oshirish maqsadida “platforma – to'lov tizimi – bank – soliq organi” integratsion axborot modelini shakllantirish, soliq risklarini avtomatik baholash, elektron savdo operatsiyalarini identifikatsiya qilish, platformalar orqali olingan daromadlarni avtomatik deklaratsiyalash hamda riskka asoslangan raqamli soliq nazoratini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur mexanizmlar elektron tijorat sohasida yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, soliqqa tortish, soliq ma'muriyatchiligi, raqamli transformatsiya, marketpleys, elektron savdo platformasi, soliq bazasi, elektron to'lov, QQS, raqamli soliq nazorati, risk tahlili, yashirin iqtisodiyot, transchegaraviy elektron xizmatlar.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуется современное состояние системы налогообложения субъектов электронной коммерции в Узбекистане в условиях стремительного развития цифровой экономики, её институциональные и экономические особенности, а также возможности совершенствования налогового администрирования. Обосновано, что расширение деятельности электронных торговых площадок, маркетплейсов,

торговых операций, осуществляемых через социальные сети, электронных платежей, трансграничных электронных услуг и цифровых платформ обуславливает необходимость адаптации традиционных механизмов налогообложения к новым экономическим условиям. Особое внимание уделено вопросам идентификации операций электронной коммерции, полноценного формирования налоговой базы, мониторинга хозяйственных операций в режиме реального времени, а также развития обмена данными между электронными платформами и информационными системами налоговых органов.

В статье разработаны предложения по повышению эффективности налогообложения электронной коммерции посредством формирования интеграционной информационной модели «платформа – платёжная система – банк – налоговый орган», автоматической оценки налоговых рисков, идентификации операций электронной торговли, автоматического декларирования доходов, полученных через цифровые платформы, а также усиления риск-ориентированного цифрового налогового контроля. Обосновано, что данные механизмы могут способствовать сокращению скрытой экономической деятельности в сфере электронной коммерции, расширению налоговой базы, снижению транзакционных издержек, связанных с исполнением налоговых обязательств, а также обеспечению стабильности доходов государственного бюджета.

Ключевые слова: электронная коммерция, цифровая экономика, налогообложение, налоговое администрирование, цифровая трансформация, маркетплейс, электронная торговая платформа, налоговая база, электронный платёж, НДС, цифровой налоговый контроль, анализ рисков, теневая экономика, трансграничные электронные услуги.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarining mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Internet infratuzilmasining kengayishi, mobil texnologiyalar, raqamli to'lov vositalari, sun'iy intellekt, bulutli xizmatlar va elektron savdo platformalarining ommalashishi natijasida iqtisodiy munosabatlarning tobora katta qismi raqamli muhitga ko'chmoqda. Mazkur tendensiya elektron tijoratning nafaqat chakana savdoning zamonaviy shakli, balki tadbirkorlik faoliyatining alohida ekotizimi sifatida shakllanishiga olib kelmoqda.

An'anaviy savdoda xo'jalik operatsiyasining amalga oshirilgan joyi, sotuvchi, xaridor, tushum hamda tovar harakatini aniqlash nisbatan oson bo'lsa, elektron tijoratda bitta iqtisodiy operatsiyaning o'zida marketpleys, to'lov tashkiloti, bank, logistika kompaniyasi, xorijiy raqamli platforma va boshqa axborot vositachilari ishtirok etishi mumkin. Natijada soliqqa tortish obyekti va soliq bazasini aniqlash, daromadning qaysi yurisdiksiyada shakllanganini belgilash, platformalar orqali faoliyat yuritayotgan sotuvchilarning soliq majburiyatlarini nazorat qilish hamda transchegaraviy operatsiyalarni soliqqa tortish jarayonlari murakkablashadi.

O'zbekistonda ham elektron tijoratning iqtisodiyotdagi o'rni jadal oshib bormoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, elektron tijorat savdo hajmi 2020-yilda 1 002,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 5 978,7 mlrd so'm, 2022-yilda 10 886,8 mlrd so'm, 2023-yilda 13 263,8 mlrd so'm va 2024-yilda 15 211,5 mlrd so'mga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar raqamli savdo operatsiyalarining soliqqa tortish tizimidagi fiskal ahamiyati yildan yilga ortib borayotganidan dalolat beradi.

Elektron tijoratning rivojlanishiga internet infratuzilmasining kengayishi ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yilda O'zbekistonda internetdan foydalanish imkoniyatiga ega abonentlar soni 36,2 mln nafarga yetgan. Korxona va tashkilotlarning internetga ulanganlik darajasi esa 2021-yildagi 17,5 foizdan 2025-yilda 38,7 foizgacha oshgan. Mazkur holat raqamli biznes modellarining iqtisodiyot tarmoqlariga yanada chuqur kirib borishi uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Elektron tijorat munosabatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida ham O'zbekistonda muhim institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan O'RQ-792-sonli "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun elektron savdo munosabatlarining zamonaviy huquqiy asoslarini shakllantirdi. Qonunda elektron tijorat sotuvchilari sifatida elektron savdo maydonchalarida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda qonunchilik doirasida chakana elektron savdoni amalga oshiruvchi o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyati nazarda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish masalasi raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Elektron savdo hajmining ortishi, raqamli platformalarning iqtisodiy munosabatlardagi rolining kuchayishi, transchegaraviy elektron xizmatlar ko'lamining kengayishi hamda to'lov tizimlarining raqamlashtirilishi an'anaviy soliqqa tortish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarda elektron tijoratni soliqqa tortish, asosan, soliq yurisdiksiyasini aniqlash, qo'shilgan qiymat solig'ini undirish,



raqamli platformalarni soliq ma'muriyatchiligiga jalb etish, elektron hisobvara-fakturalardan foydalanish hamda soliq nazoratini raqamlashtirish nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2015-yilda tayyorlangan "Raqamli iqtisodiyotning soliqqa tortish bilan bog'liq muammolarini hal etish" nomli hisobotda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi an'anaviy soliqqa tortish tamoyillariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. OECD (2015) fikriga ko'ra, raqamli biznesning asosiy xususiyatlaridan biri korxonaning muayyan mamlakat hududida jismoniy jihatdan mavjud bo'lmagan turib ham ushbu mamlakat iste'molchilariga katta hajmda xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega ekanligidir. Bu holat foydaning qaysi davlat hududida shakllanganini aniqlash, doimiy muassasa tushunchasini qo'llash va soliqqa tortish huquqini mamlakatlar o'rtasida taqsimlash masalalarini murakkablashtiradi. Hisobotda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq bazasining yemirilishiga qarshi kurashish uchun mamlakatlar o'rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish, raqamli biznes modellarini hisobga oluvchi soliqqa tortish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda elektron operatsiyalar monitoringi tizimini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan.

Bellon, Chang, Dabla-Norris, Khalid, Lima, Rojas va Villena (2019) tomonidan olib borilgan "Soliq intizomini yaxshilashda raqamlashtirish: Peruda QQS bo'yicha elektron hisobvara-fakturalar tajribasi" nomli tadqiqot elektron soliq ma'muriyatchiligining amaliy samaradorligini ko'rsatib bergan. Mualliflar Peruda elektron hisobvara-faktura tizimi joriy etilgandan keyingi natijalarni statistik jihatdan tahlil qilib, elektron invoices tizimi korxonalarning savdo operatsiyalarini aniqroq aks ettirishiga, deklaratsiya qilinadigan daromadlar hajmining ortishiga hamda soliqqa tortiladigan bazaning kengayishiga olib kelganini aniqlaganlar. Tadqiqotda, ayniqsa, kichik korxonalar va avval soliq intizomi nisbatan past bo'lgan tarmoqlarda elektron hisobvara-fakturalarning ta'siri yuqori bo'lgani qayd etilgan. Mazkur ilmiy natija elektron hisobvara-faktura tizimini faqat hujjat almashinuvi vositasi emas, balki soliq nazoratini kuchaytiruvchi muhim instrument sifatida baholash imkonini beradi.

Brondolo (2021) tomonidan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi doirasida tayyorlangan "Import qilinadigan raqamli xizmatlar va kam qiymatli import tovarlariga qo'shilgan qiymat solig'ini ma'muriy boshqarish" nomli tadqiqotda transchegaraviy elektron savdoni soliqqa tortishning amaliy masalalari o'rganilgan. Muallif xorijiy elektron xizmat ko'rsatuvchilarni masofadan turib soliq hisobiga qo'yish, ular uchun soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish tartibini joriy etish, elektron deklaratsiya va onlayn to'lov vositalaridan foydalanishni QQS undirishning samarali usullari sifatida ko'rsatgan. Brondolo (2021) fikriga ko'ra, xorijiy raqamli kompaniyalarning mamlakat hududida jismoniy vakolatxonasi mavjud emasligi ularning soliq majburiyatlaridan ozod qilinishiga sabab bo'lmagligi kerak. Shu bois iste'mol bozori mavjud bo'lgan mamlakat raqamli xizmatlardan soliq undirish uchun tegishli ma'muriy mexanizmlarga ega bo'lishi lozim.

Dabla-Norris va hammualliflar (2021) tomonidan tayyorlangan "Osiyo mamlakatlarida raqamlashtirish va soliqqa tortish" tadqiqotida raqamli iqtisodiyotning davlat budjeti daromadlariga ta'siri keng tahlil qilingan. Tadqiqotchilar elektron tijorat, mobil to'lovlar, raqamli xizmatlar va platforma iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida soliq organlarida katta hajmdagi raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati paydo bo'layotganini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, bank ma'lumotlari, elektron hisobvara-fakturalar, to'lov tashkilotlari hamda savdo platformalaridagi operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish soliq bazasini aniqlash aniqligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirishi hamda soliq organlari tomonidan riskka asoslangan nazoratni tashkil etish imkonini berishi qayd etilgan.

O'zbekistonda ham raqamli soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda rivojlanib bormoqda. I.A. Ergashev (2020) "Soliq ma'muriyatchiligi va raqamli texnologiyalar" nomli tadqiqotida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish soliq ma'muriyatchiligida vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirishi mumkinligini ta'kidlagan. Muallif O'zbekistonda elektron hisobvara-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti hamda boshqa raqamli servislarni rivojlantirish soliq intizomini oshirish va soliqlarni undirish samaradorligini yaxshilashga xizmat qilishini asoslagan.

M. Aliyeva (2023) tomonidan olib borilgan "O'zbekistonda elektron tijoratning davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish va uning dolzarbligi" nomli tadqiqotda elektron tijoratning institutsional-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Muallif elektron tijoratni rivojlantirish uchun faqat zamonaviy texnologik infratuzilmani yaratishning o'zi yetarli emasligini, balki elektron shartnomalar, to'lovlar, sotuvchi va xaridorlarning huquq hamda majburiyatlari, elektron savdo platformalarining javobgarligi kabi masalalarni ham aniq tartibga solish zarurligini qayd etadi. Tadqiqotda O'zbekistonda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda 2022-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning ahamiyati alohida ko'rsatib berilgan.

A. Pulatov (2024)ning "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish" nomli tadqiqotida raqamli biznes modellarini O'zbekiston soliq tizimiga moslashtirish muammolari tahlil qilingan. Muallif, xususan, xorijiy raqamli kompaniyalarning mamlakat hududida jismoniy vakolatxonasi mavjud bo'lmagan-da, O'zbekiston iste'molchilariga xizmat ko'rsatishi natijasida soliq majburiyatlari yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Tadqiqotda elektron

xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalarni aniqlash, ularni soliq hisobiga qo'yish, moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish hamda elektron operatsiyalarni nazorat qilish bilan bog'liq mavjud muammolar ko'rsatib berilgan. Pulatov (2024) soliq ma'muriyatchiligida texnologik vositalarni faol joriy etish va xalqaro axborot almashinuvi tizimlaridan foydalanishni taklif etadi.

O'zbekistonda elektron tijoratni tartibga solishning muhim huquqiy asoslaridan biri 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan O'RQ-792-sonli "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Mazkur qonunda elektron tijorat ishtirokchilarining huquqiy maqomi, elektron savdo maydonchalarining faoliyati, elektron shartnomalar, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlar hamda elektron tijoratda axborotdan foydalanish masalalari belgilangan. Ushbu huquqiy baza elektron savdo subyektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini rivojlantirish uchun ham muhim institutsional asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish tizimini raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish masalalari tizimli va qiyosiy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash hamda dinamik tahlil usullaridan foydalanildi.

Elektron tijorat hajmi, raqamli to'lovlar, soliq ma'muriyatchiligi va elektron savdo operatsiyalariga oid ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha o'zgarishi tahlil qilinib, ularning soliqqa tortish samaradorligiga ta'siri baholandi. Shuningdek, OECD va ayrim xorijiy davlatlarning elektron tijoratni soliqqa tortish tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Soliq qo'mitasi, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, OECD va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ma'lumotlari hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi. Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, ayrim tahliliy ma'lumotlarni umimlashtirish va ilmiy ifodalarni takomillashtirish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi. Olingan natijalar asosida elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortishda raqamli nazoratni rivojlantirish, axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish hamda riskka asoslangan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayni vaqtda 2026-yil 1-yanvardan yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliqning 1 foizlik stavkasi joriy etildi. Shuningdek, bunday shaxslarning faoliyatini raqamli platformalar orqali yuritishi, ro'yxatdan o'tishi, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirishi, QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilishi va elektron hisobvara-fakturalar rasmiylashtirishi uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu yondashuv kichik hajmdagi elektron biznesni yashirin faoliyatdan rasmiy iqtisodiyotga olib chiqishda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Elektron tijoratni soliqqa tortishda eng muhim muammolardan biri amalga oshirilayotgan operatsiyalarni identifikatsiya qilishdir. An'anaviy savdo subyekti ma'lum savdo manziliga ega bo'lsa, elektron tijoratda bir tadbirkor bir vaqtning o'zida bir nechta marketpleys, ijtimoiy tarmoq, messenjer yoki shaxsiy internet-sayt orqali mahsulot sotishi mumkin. Bunday sharoitda platformalar bo'yicha shakllangan tushumlar yagona ma'lumotlar bazasida konsolidatsiya qilinmasa, tadbirkorning haqiqiy aylanmasini aniqlash qiyinlashadi. Bu esa aylanmadan olinadigan soliq yoki QQS bo'yicha soliq bazasining to'liq hisobga olinmasligi xavfini oshiradi.

Mazkur muammoni hal qilishda elektron to'lov tizimlarini fiskal ma'lumotlar bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. 2026-yil 1-iyuldan savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun banklarda generatsiya qilingan yagona QR-kod orqali elektron to'lovlarni qabul qilish tizimini joriy etish belgilandi. Ushbu mexanizm elektron tijorat uchun ayniqsa muhim bo'lib, to'lov operatsiyalarining elektron izini yaratish va realizatsiya tushumlarini soliq hisobotlari bilan avtomatik taqqoslash imkoniyatini kengaytiradi.

Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish bo'yicha yana bir muhim natija elektron hisobvara-fakturalarni xavf darajasi bo'yicha avtomatik baholash tizimining joriy etilishidir. 2026-yildan elektron hisobvara-fakturalar tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjiri bo'yicha maxsus axborot tizimi orqali tahlil qilinib, past va yuqori xavf toifalariga ajratilmoqda. Xavf darajasi tegishli mezonlarga berilgan ballar yig'indisi asosida avtomatik aniqlanadi. Bu tizimni elektron tijoratga ham faol tatbiq etish platformalarda shakllangan operatsiyalar orasidan iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan, sun'iy aylanma yaratishga qaratilgan yoki soliq bazasini kamaytirish xavfi mavjud operatsiyalarni tezkor aniqlash imkoniyatini yaratadi.

2026-yilda soliq ma'murchiligini raqamli transformatsiya qilish jarayoni yangi bosqichga o'tdi. 2026-yil iyun oyida my.soliq.uz va my3.soliq.uz elektron soliq xizmatlari yagona platformaga integratsiya qilina boshlandi.



Bu soliq to'lovchilar uchun xizmatlarni yagona raqamli muhit orqali olish imkoniyatini kengaytirdi. Bundan tashqari, 2026-yil 30-iyulda "AI SOLIQ" sun'iy intellekt asosidagi platformasi ishga tushirildi. Mazkur tizim soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilish, elektron hisobvaraq-fakturalarning yuqori xavf toifasiga tushish sabablarini aniqlash, soliq reytingi va hisobotlari bo'yicha avtomatik ma'lumot olish imkonini beradi.

2020–2024-yillarda elektron tijorat hajmining 1,0 trln so'mdan 15,2 trln so'mgacha oshishi, 2021–2025-yillarda internetdan foydalanish darajasining 76,6 foizdan 94,2 foizgacha ko'tarilishi, shuningdek 2025–2026-yillarda soliqqa tortish va raqamli soliq ma'murchiligi mexanizmlarining bosqichma-bosqich yangilanishi O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda 2026-yil 1-yanvardan yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliqning 1 foizlik stavkasi joriy etildi. Shuningdek, bunday shaxslarning faoliyatini raqamli platformalar orqali yuritishi, ro'yxatdan o'tishi, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirishi, QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilishi va elektron hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirishi uchun tegishli imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur yondashuv kichik hajmdagi elektron biznes faoliyatini yashirin iqtisodiyotdan rasmiy iqtisodiyotga olib chiqishda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Elektron tijoratni soliqqa tortishdagi eng muhim muammolardan biri amalga oshirilayotgan operatsiyalarni identifikatsiya qilish hisoblanadi. An'anaviy savdo subyekti muayyan savdo manziliga ega bo'lsa, elektron tijoratda bitta tadbirkor bir vaqtning o'zida bir nechta marketpleys, ijtimoiy tarmoq, messenjer yoki shaxsiy internet sayti orqali mahsulot sotishi mumkin. Bunday sharoitda turli platformalar bo'yicha shakllangan tushumlar yagona ma'lumotlar bazasida konsolidatsiya qilinmasa, tadbirkorning haqiqiy aylanmasini aniqlash murakkablashadi. Bu esa aylanmadan olinadigan soliq yoki QQS bo'yicha soliq bazasining to'liq hisobga olinmasligi riskini oshiradi.

Mazkur muammoni hal etishda elektron to'lov tizimlarini fiskal ma'lumotlar bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. 2026-yil 1-iyuldan savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun banklarda generatsiya qilingan yagona QR-kod orqali elektron to'lovlarni qabul qilish tizimini joriy etish belgilandi. Ushbu mexanizm elektron tijorat uchun, ayniqsa, muhim bo'lib, to'lov operatsiyalarining elektron izini shakllantirish hamda realizatsiyadan olingan tushumlarni soliq hisobotlari bilan avtomatik ravishda taqqoslash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bo'yicha yana bir muhim natija elektron hisobvaraq-fakturalarni risk darajasi bo'yicha avtomatik baholash tizimining joriy etilishidir. 2026-yildan boshlab elektron hisobvaraq-fakturalar tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjiri bo'yicha maxsus axborot tizimi orqali tahlil qilinib, past va yuqori risk toifalariga ajratilmoqda. Risk darajasi tegishli mezonlarga berilgan ballar yig'indisi asosida avtomatik ravishda aniqlanadi. Mazkur tizimni elektron tijorat sohasiga ham faol tatbiq etish platformalarda shakllangan operatsiyalar orasidan iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan, sun'iy aylanma yaratishga qaratilgan yoki soliq bazasini kamaytirish riski mavjud bo'lgan operatsiyalarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

2026-yilda soliq ma'muriyatchiligini raqamli transformatsiya qilish jarayoni yangi bosqichga o'tdi. 2026-yil iyun oyidan my.soliq.uz va my3.soliq.uz elektron soliq xizmatlarini yagona platformaga integratsiya qilish jarayoni boshlandi. Bu soliq to'lovchilar uchun xizmatlardan yagona raqamli muhit orqali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bundan tashqari, 2026-yil 30-iyulda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan "AI SOLIQ" platformasi ishga tushirildi. Mazkur tizim soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilish, elektron hisobvaraq-fakturalarning yuqori risk toifasiga tushish sabablarini aniqlash, soliq reytingi va hisobotlari bo'yicha avtomatik ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

2020–2024-yillarda elektron tijorat hajmining 1,0 trln so'mdan 15,2 trln so'mgacha oshishi, 2021–2025-yillarda internetdan foydalanish darajasining 76,6 foizdan 94,2 foizgacha ko'tarilishi, shuningdek, 2025–2026-yillarda soliqqa tortish va raqamli soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarining bosqichma-bosqich yangilanishi O'zbekistonda elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish tizimi raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga mos ravishda takomillashib borayotganini ko'rsatadi. Biroq elektron tijoratning jadal kengayishi ushbu sohani faqat mavjud soliq stavkalari va an'anaviy deklaratsiya tizimi doirasida boshqarish yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Elektron tijoratning o'ziga xos xususiyati iqtisodiy operatsiyalarning raqamli muhitda amalga oshirilishi, bir vaqtning o'zida bir nechta platforma va to'lov vositalaridan foydalanilishi hamda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlarda turli vositachilarning ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli soliq ma'muriyatchiligida ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni o'zaro integratsiya qilish va tahliliy maqsadlarda samarali qo'llash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari OECD tomonidan ilgari surilgan "Soliq ma'muriyatchiligi 3.0" konsepsiyasi bilan uyg'unlikni namoyon etadi. Mazkur konsepsiyada soliq majburiyatlarini biznes jarayonlaridan alohida shakllantirish o'rniga

ularni iqtisodiy operatsiyalarning o'ziga integratsiya qilish taklif etiladi. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuv elektron tijorat platformalari, banklar, to'lov tashkilotlari, elektron hisobvaraqa-faktura tizimi hamda soliq organlarining axborot bazalarini o'zaro integratsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday integratsiya soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlargagina tayanadigan tizimdan mustaqil raqamli manbalar orqali tekshirish imkonini beruvchi soliq ma'muriyatchiligi modeliga o'tishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari elektron platformalarni soliq ma'muriyatchiligi faol ishtirokchisiga aylantirish zarurligini ham ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda marketpleyslar sotuvchi, xaridor, mahsulot, narx, tranzaksiya summasi hamda to'lov holati bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarga ega. Mazkur ma'lumotlardan soliq ma'muriyatchiligida foydalanish soliq bazasining to'liq shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Bunda platformalarni barcha soliq majburiyatlari bo'yicha to'liq javobgar subyektga aylantirish emas, balki ularni ishonchli axborot manbai va ayrim operatsiyalar bo'yicha soliq agenti sifatida jalb etish maqsadga muvofiq.

Muhim masalalardan yana biri elektron tijorat subyektlarining bir nechta platformada bir vaqtning o'zida faoliyat yuritishi bilan bog'liq. Bitta tadbirkor marketpleys, ijtimoiy tarmoq, messenjer va shaxsiy internet sayti orqali parallel ravishda savdo qilishi mumkin. Agar har bir platformadagi aylanma alohida hisobga olinsa, tadbirkorning haqiqiy iqtisodiy faoliyati va jami tushumini to'liq baholash qiyinlashadi. Shu sababli elektron tijorat subyektlari faoliyatini soliq identifikatsiya raqami asosida konsolidatsiya qilish hamda barcha raqamli savdo kanallarida shakllangan aylanmalarni yagona soliq profiliga birlashtirish taklif etiladi.

Elektron tijoratni soliqqa tortishda banklar va to'lov tashkilotlari ma'lumotlaridan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Raqamli savdoda aksariyat operatsiyalar elektron to'lov izini qoldiradi. Biroq bunday ma'lumotlardan foydalanishda tadbirkorlik faoliyatidan olingan tushumlarni shaxsiy pul o'tkazmalaridan ajratish muammosi mavjud. Shu sababli barcha jismoniy shaxslarning bank operatsiyalarini keng qamrovli nazorat qilish o'rniga risk indikatorlariga asoslangan selektiv monitoring mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv, bir tomondan, soliq nazorati samaradorligini oshirishga, ikkinchi tomondan esa shaxsiy moliyaviy ma'lumotlardan foydalanishda mutanosiblik tamoyilini saqlashga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron tijorat subyektlarini soliqqa tortish samaradorligini oshirish faqat soliq stavkalarini o'zgartirish orqali emas, balki soliq bazasini to'liqroq qamrab olish, elektron operatsiyalarni avtomatik identifikatsiya qilish hamda soliq ma'lumotlarini real vaqtga yaqin rejimda qayta ishlash orqali ta'minlanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, elektron tijoratni soliqqa tortishda deklaratsiyaga asoslangan an'anaviy modeldan tranzaksiyalar va raqamli ma'lumotlarga asoslangan soliq ma'muriyatchiligi modeliga bosqichma-bosqich o'tish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijasida elektron savdo platformalari, to'lov tashkilotlari, tijorat banklari, elektron fiskal tizimlar va soliq organlari o'rtasida yagona axborot almashinuvi mexanizmini shakllantirish zarurligi asoslandi. Taklif etilgan "elektron savdo platformasi – to'lov tashkiloti – tijorat banki – elektron fiskal tizim – soliq organi" integratsion modeli elektron savdo operatsiyalarining raqamli izini shakllantirish, realizatsiya hajmini avtomatik aniqlash hamda soliq hisobotlari bilan haqiqiy tushumlar o'rtasidagi tafovutlarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, elektron tijorat subyektlarini nazorat qilishda barcha tadbirkorlarga bir xil yondashuvni qo'llash o'rniga raqamli soliq risk-indeksi asosida differensial nazorat mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda marketpleyslardagi savdo hajmi, bank tushumlari, elektron hisobvaraqa-fakturalar, fiskal cheklar, soliq hisobotlari, soliq qarzdorligi va operatsiyalar o'rtasidagi tafovutlar asosida tadbirkorning soliq riski avtomatik ravishda baholanishi mumkin. Natijada soliq organlarining nazorat resurslarini yuqori riskli subyektlarga yo'naltirish va soliq majburiyatlarini vijdonan bajarayotgan tadbirkorlarning ma'muriy yukini kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Elektron tijoratda norasmiy faoliyatni qisqartirish uchun kichik biznes subyektlari va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qonuniy faoliyatga jalb etishga xizmat qiluvchi soddalashtirilgan raqamli soliq xizmatlarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish, elektron ro'yxatdan o'tish, QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish hamda platformalardagi savdo ma'lumotlarini soliq tizimiga avtomatik uzatish soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq tranzaksiya va ma'muriy xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda elektron tijoratni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida soliq ma'lumotlarini integratsiyalash, avtomatik soliq hisobotlarini shakllantirish, elektron platformalarni soliq ma'muriyatchiligiga faol jalb etish, sun'iy intellekt asosida soliq risklarini baholash, transchegaraviy elektron operatsiyalar ustidan samarali nazoratni kuchaytirish hamda tadbirkorlar uchun ma'muriy yukni kamaytirish belgilandi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son ***Elektron tijorat to'g'risida***gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 30.09.2022. – 03/22/792/0870-son. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – [LexUZ — O'RQ-792-son Qonun](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ***Raqamli O'zbekiston – 2030*** strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida***gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 06.10.2020. – 06/20/6079/1349-son. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – [LexUZ — PF-6079-son Farmon](#)
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 885-son ***O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida***gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 28.12.2024. – 09/24/885/1077-son. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – [LexUZ — 885-son qaror](#)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi PQ-136-son ***O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida***gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 13.04.2026. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – [LexUZ — PQ-136-son qaror](#)
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. **Elektron tijorat savdo hajmi (yillik), 2016–2024-yillar** // Statistik ma'lumotlar axborot tizimi (SIAT). – Toshkent, 2025. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – [SIAT — Elektron tijorat savdo hajmi](#)
6. Aliyeva M.O. O'zbekistonda elektron tijoratning davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish va uning dolzarbligi // **Central Asian Journal of Education and Innovation**. – 2023. – Vol. 2, No. 11, Part 3. – B. 37–42. – DOI: 10.5281/zenodo.10212046.
7. Pulatov A. Taxation in the Digital Economy in Uzbekistan // **The Political Economy of Central Asian Law: A Law and Society Analysis** / ed. by R. Urinboyev. – Cham: Palgrave Macmillan, 2024. – P. 227–253. – DOI: 10.1007/978-3-031-55341-7_9.
8. Homidov B.R. Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari // **Innovatsion tadqiqotlar zamonaviy dunyoda: nazariya va amaliyot**. – 2025. – J. 4. – № 25. – B. 39–42. – DOI: 10.5281/zenodo.15860442.
9. Ergashev I.A. Soliq ma'muriyatchiligi va raqamli texnologiyalar: innovatsion rivojlanish istiqbollari // **O'zbekiston qonunchiligi tahlili**. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 5–9.
10. OECD. **Addressing the Tax Challenges of the Digital Economy, Action 1 – 2015 Final Report**. OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting Project. – Paris: OECD Publishing, 2015. – 288 p. – DOI: 10.1787/9789264241046-en.
11. OECD. **International VAT/GST Guidelines**. – Paris: OECD Publishing, 2017. – 116 p. – DOI: 10.1787/9789264271401-en.
12. OECD. **The Role of Digital Platforms in the Collection of VAT/GST on Online Sales**. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 85 p. – DOI: 10.1787/e0e2dd2d-en.
13. Bellon M., Chang J., Dabla-Norris E., Khalid S., Lima F., Rojas E., Villena P. Digitalization to Improve Tax Compliance: Evidence from VAT e-Invoicing in Peru // **IMF Working Papers**. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2019. – No. 2019/231. – DOI: 10.5089/9781513513713.001.
14. OECD. **Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration**. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 73 p. – DOI: 10.1787/ca274cc5-en.
15. Brondolo J.D. **Administering the Value-Added Tax on Imported Digital Services and Low-Value Imported Goods** // IMF Technical Notes and Manuals. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021. – No. 2021/004. – 39 p. – DOI: 10.5089/9781513576480.005.
16. Dabla-Norris E., de Mooij R.A., Hodge A., Loeprick J., Prihardini D., Shah A., Beer S., Davidovic S., Modi A.M., Qi F. **Digitalization and Taxation in Asia** // IMF Departmental Papers. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2021. – No. 2021/017. – 75 p. – DOI: 10.5089/9781513577425.087.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100